

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

QUR'ONI KARIMNI TILOVATI VA INSON PSIXOLOGIYASI

Turdiyev Umarbek To'rabek o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Quyidagi maqolada Muqaddas Qur'oni Karim tilovati inson psixologiyasiga ta'sirini xususan insoniyat bu tilovatni eshitgan holatdagi o'zgarishlari va hayotidagi mazmuni haqida atroflicha o'qib ma'lumotga ega bo'lish mumkin .

Kalit so'zlar : jazz, pop, rok, opera, balet, sakinat, balog'at va fashat, "bayinnah platformasi ".

Аннотация

В этой статье представлен о влиянии Корана на психологию человека особенно изменения в состоянии человечества когда они слышали этот тилват " чтение" и смысл в их жизни

Ключевые слова : жазз поп рок опера балет сакина балога и фасоха платформа " **Bayyinah**"

Annotation

In the article you will read about the effect of tilovat "reciting the Holy Quran on human psychology especially the change in the state of mankind after hearing this tilavat "recitation" and the meaning of their lives

Keywords : jazz , pop, rock, opera , balet , sakina , baloge and fasohe and platform " **bayyinah** "

Birinchidan insoniyat ohang musiqaga qanday qiziqib qolganligi haqida eslaylik, Chunki QUR'ON ajoyib va betakror ohangga egaligini unutmashimiz darkor .

Inson birinchi bo'lib, she'riyat va shu she'riyat orqali ohang kuy va qo'shiqlar kasb etdi, shundan so'ng tinglovchilarga bu yoqib qoldi .

Qadimgi Yevropa xalqlari Opera, balet va ballar uyushtirib o'ziga madaniy hordik olishni kasb etgan. Mosartning qirollik saroyida 7 yoshda konsert berishi,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Betxovenning takrorlanmas musiqi ijrolari o'sha davr insonlarini rom etdi, lekin inson bu kabi jazz, pop, rok, opera kabi musiqalardan to'liq sakinatni topa olmadi. Endi Qur'on tilovati mo'jizaviy tomoni haqida gaplashsak: Qur'on karim tilovati bir vaqtda ohang, Arab tilining balog'ati fasohati betakror takrorlanmas jozibador ko'rinishini takror aks ettiradi, buni xatto arab bo'lmagan shaxslar ham e'tirof etgan. Mashhur Fransiyalik film prodyusseri, musiqachi, sobiq nasroniy va buddist Julian Rolor musulmon davlatlarining birida taksida ketayotgan edi, taksi haydovchisi shaxsiy magnitafonida Qur'on tilovatini eshitib ketar edi. Julian Rolor behosdan u vav deb xayratlandi. Bu juda ajoyib musiqi ekan quloqlarimga yoqayapti dedi. Taksichi esa taajjublanib siz musulmon emasmisiz? axir bu Qur'on-ku dedi. Mana shu voqeadan so'ng Julian Rolor Muqaddas Islom diniga qiziqib qoldi va ko'p o'tmasdan mana shu dinni qabul qildi. Alloh uning xidoyatini bardavom qilsin, Amin.

Mana birgina tilovat nafaqat inson hayotiga balki butun ongiga ta'sir etmoqda .

Yana bir voqeaga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

Yevropa psixologiya tadqiqotlar markaziga 4 shaxs olib kelingan. Biri arab bo'lib, u arab tilini yaxshi bilgan musulmon, ikkinchisi arab, lekin arab tilini uncha yaxshi bilmagan musulmon, uchinchisi ajam bo'lgan musulmon, to'rtinchisi esa arab ham, ajam ham, musulmon ham, bo'lmagan shaxs .

Ularning har biriga Qur'on tilovatini eshittirishgan. Natija shunday bo'lganki har to'rttalasida ham ko'z yoshlari va yig'i paydo bo'lgan. Psixologlar Qur'on tilovati hatto arab bo'lmagan ajam va hatto musulmon bo'lmagan g'ayridinga ham kuchli ta'sir etganini e'tirof etishgan.

Yana bir misolni keltiramiz:

Mashhur islom davatchilaridan biri "Bayyinx" platformasi rahbari Numon Ali Xon shunday deydi: Bir kuni o'g'lim juda qattiq betob bo'lib qoldi, Men uning karavoti oldida unga qarab turardim. Nima qilishni bilmasdim, birdaniga qo'limga Qur'oni karimni oldim va uni tilovat qila boshladim. Bir soatdan keyin hamshira kelib, bu qanday kitob o'zi o'g'lingiz va boshqa bemorlarning yurak urish ritmi barqarorlashmoqda, dedi. O'sha vaqtda Numon Ali Xon – Alhamdulillah dedi va Nabiyyimiz sollollohu alayhi vassalamning Qur'on bu shifodir degan so'zlarini bilan nihoyaladi. Ta'kidlash joizki, Yevropa psixologiya tadqiqot markazida Qur'oni Karim tilovati inson psixologiya ta'sirini aniqlashib, shunday xulosaga kelishgan: Qur'oni Karim tilovatida inson miyasidagi hujayra va to'qimalarini paydo bo'lishi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

va nerv to ‘qimalarini mayinlik bilan tinchlantirish qobiliyatining borligini e’tirof etishdi.

Fazilatli Shayx Alijon qori Ibn Fayzulloh aytadiki: Bir qariya bilan suhbatlashib o‘tirar edim, unda keksalik alomatlari ko‘rinmas, yoshlari 70 ga yaqinlashib qolgan, arab qorilaridan biri edi, men so‘radimki: Ey Shayx, qanday bu holatdasizki, sizni ko‘rib taassufdaman dedim. U menga qarab jilmaydi va “Qur'on Karim” tufayli 30 yildan ortiq kasal bo‘lmaganligini, tanasi esa bardam va uyg‘oq turganini ta’kidladi, u yana “Qur'on Karim” insoniyatga berilgan mana shunday mo‘jiza, fazl va ne‘matlarga boy ekanligini aytdi.

Islom ulamolari shuni ta’kidlashadiki: Insonlar ruhiy dam olish uchun uzoqlarga, tabiatga, tog‘larga, manzarali va bahavo joylarga borishni xohlaydi. Lekin bu narsa ularga to‘liq hordik olishni bermaydi. Ammo muqaddas kitob tilovatini tinglar ekan inson bu olamdan ruhiyat olamiga ko‘chadi, va bir vaqtning o‘zida Odam alayhissalomdan to bugungacha bo‘lgan umumiy tarixni, inson ko‘z o‘ngida mavjlantiradi. Qur'oni karimning tilovati insoniyatni sakinatga olib boradi.

Yana bir yangi voqeaga e’tiboringizni qaratmoqchimiz:

Mashhur Islom shayxlaridan biri aytayaptilar: Men qizalog‘imga bergan va'daga muvofiq Xitoyning bir yurtlariga safar qildim. Men, zavjam va qizalog‘im. Qizim 5-6 yosh qizaloq. Poytaxtdan so‘ng viloyatlariga tashrif buyurdik. Avtobusga mindik, bizdan boshqa hamma Xitoylik edi. Juda uzoq vaqt yo‘l yurdik. Shu payt birdaniga qizim menga

- Otajon dedi
- labbay qizim dedim.

Qizim so‘zida davom etarkan – Nega bu kimsalarni Allohga chaqirmaysiz dedi

???– Axir bu insonlarni Islomdan ham xabari yo‘qda – dedim duduqlanib

– Ey Otajon ularga Kallamullohni (Qur'oni karim) o‘qib bering dedi. qizimga yo‘q deya olmasdim va hatto uning so‘zidan etim junjikib ketgan edi .

Birdaniga avtobusning hamma ko‘radigan joyiga chiqdim va sizlarga bir narsa aytib bermoqchiman agar eshitishni xohlasangiz dedim. Ular barchasi rozi bo‘lishdi va nima aytib berishimga qiziqib qolishdi va men ularga ko‘zlarini yumishini iltimos qildim va “Fotixayu Sharifni” tilovat qila boshladim. Shundan so‘ng ulardan nima his qilganini so‘radim:

- Men juda qadim zamonlarga borib qoldim – dedi bir kishi.
- Men umrimda his qilmagan huzur halovatda qoldim dedi biri.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

– Men shunday baxt saodatni his qildimki, qani edi shu aytayotgan narsang to‘xtamasa edi dedi. Qolganlari ham qattiq taajjublangani haqida ma‘lumot berishdi. Ular barchasi mendan bu nima deb so‘rashdi. Bu bizning Muqaddas kitobimiz Qur‘oni karimdan bir parcha dedim. Ular esa Islomni qanday o‘rganish haqida menga tinimsiz va to‘xtovsiz savol berishardi .

Doktor Najiyb Arrifoiy proffesor fizik olim so‘zlab beradiki: Bir kuni meni Britaniyaga anjumanga chaqirishdi. Anjumanda yangi kashfiyotlar va turli baxslar bo‘ldi. So‘z oxirida konferensiya boshlovchisi savollar bo‘lmasa yakunlaymiz dedi, men esa qo‘limni ko‘tardim va mikrofon oldiga bordim. -Hozir sizlarga bir narsa aytib beraman, sizlar esa nima his qilganingizni aytasiz- debdi dunyo olimlari rozi bo‘lishibti. Doktor Najiyb Ar-rifoiy ularga “Oyatil Kursiy”ni tilovat qildim deydi. Konferensiya boshlovchisining ko‘zida duv-duv yosh turardi. Fizik olimlar esa – Sen bizga shunday narsa o‘qidingki, butun yeru-zaminni boshqaruvchi bir katta quvvat egasi mavjud va u barcha quvvatlar markazini boshqaradi va borliq o‘sha quvvat egasi orqali mavj uradi dedi. Xayratlanarlisi shundaki, ularning so‘zlari qilingan tilovat ma'nolariga to‘liq mos tushardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 30-juz Qu`roni Karim fazilati: “Hilol – Nashr “nashriyoti
2. Л.И.Климович : Книга о коране его происхождения и мифология Киргизия академия
3. Shayh Alijon qori Fayzulloh. Qur`oni karim shafoti “Hilol – Nashr “nashriyoti.

